



## Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi



# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI


2022- YILNING  
YANVAR-MART OYLARIDA



*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-mart*

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdag'i vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qildi.



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-mart



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2225,1** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **440,4** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,3 %** ni tashkil etdi.

## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



# ***Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi***



***Dastlabki ma'lumotlar***


***2022- yil yanvar-mart***

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-mart oylarida)</b>	<b>Hajmi, mldr. so'm</b>	<b>2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2225,1</b>	<b>118,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	124,2	114,5
Moliyaviy xizmatlar	537,9	133,6
Transport xizmatlari	582,2	143,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	250,3	102,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	51,6	104,3
Savdo xizmatlari	465,3	103,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	53,7	108,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	98,0	86,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	28,5	103,8
Ijara xizmatlari	42,8	71,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	66,8	108,9
Shaxsiy xizmatlar	84,1	106,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,9	98,4
Boshqa xizmatlar	69,1	111,6

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-mart*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-mart oylarida bu xizmatlarning ulushi **26,2 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**24,2 %**), savdo xizmatlari (**20,3 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,6 %**) bo'yicha qayd etildi.

## *Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-mart*

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo'limgan o'sish qayd etildi, ularning ulushi **0,9 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari umumiylajmiy hajmning **22,2 %** ini tashkil etgan. 2021- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko'rsatgichiga ega bo'lgan – **1,1 %**.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.




2022- yil yanvar-mart oylarida yuqori o'sish transport xizmatlarida (**43,1 %**), moliya xizmatlarida (**33,6 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**14,5 %**), boshqa xizmatlarda (**11,6 %**), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**8,9 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**8,6 %**) qayd etildi.

Ijara xizmatlari hajmi sezilarli darajada (**28,1 %** ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**13,9 %** ga), me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar (**1,6 %** ga) da pasayish kuzatildi.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-mart**

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da**



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida ijara xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **62,8 %**. Me'morchilik sohasidagi xizmatlar o'sish sur'atlarida pasayish kuzatilgan – **13,6 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-mart**




**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida savdo xizmatlarining ulushi **20,9 %** ni tashkil etib, bu **465,3 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida ularning hajmi **409,1 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmning **22,9 %** iga to'g'ri kelgan.

## **Savdo xizmatlari**



Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-mart

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i, **77,4 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **14,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,0 %**) tashkil etdi.

## Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-mart oylarida)



**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-mart**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## **Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-mart oylarida)**

2022- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **537,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **401,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiylar xizmatlar hajmidagi ulushi **24,2 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida ularning ulushi **22,5 %** ni ashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **136,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **33,6 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **130,9 %** ni tashkil etgan.

## *Dastlabki ma'lumotlar*

## *2022- yil yanvar-mart*

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **80,5 %** ni tashkil etdi.


2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **17,4 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,1 %** ini tashkil etdi.

### **Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-mart oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa  
ta'minoti bo'yicha  
xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi  
moliyaviy  
faoliyat**



**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **83,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **14,5 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,1 %**.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-mart**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekomunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

**2021- y. yanvar-mart**

**107,5**

**112,4**

**6,0**

**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati,  
% da**

**Jami hajmdagi  
ulushi, % da**

**2022- y. yanvar-mart**

**124,2**

**114,5**

**5,6**


## *Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-mart*


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da**

**2021-y. yanvar-mart**



**2022-y. yanvar-mart**



 **Telekommunikatsiya xizmatlari**

 **Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari**

 **Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari**

 **Noshirlik xizmatlari**

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,4 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-mart



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lif va fan sohasini** rivojlantirish – uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaliv ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

## Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2022- y. yanvar-mart

86,1 %

O'tgan yilga  
nisbatan o'sish  
sur'atlari

98,0  
mlrd. so'm

4,4 %

Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari  
hajmi

Umumiyl  
hajmdagi ulushi

127,3 %

2021- y. yanvar-mart

103,9  
mlrd. so'm

5,8 %

2022- yilning yanvar-mart oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **98,0** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyl hajmining **4,4 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **86,1 %** ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-mart*



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatolo-giya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetolo-giya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

**2021- y.  
Yanvar-mart**

**2022- y.  
Yanvar-mart**

**Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**

**23,2**

**28,5**

**1,3**

**1,3**

**104,7**

**103,8**

**Xizmatlar jami hajmidagi  
ulushi, % da**

**O'sish sur'ati, % da**

*Dastlabki ma'lumotlar*

*2022- yil yanvar-mart*



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatalgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**41,5**

**Xizmatlar  
hajmi, mlrd.  
so'm**

**103,3**

**O'sish sur'ati, % da**

**2,3**

**Xizmatlar jami  
hajmidagi ulushi,  
% da**

**2021- y.  
Yanvar-mart**

**51,6**

**104,3**

**2,3**

**2022- y.  
Yanvar-mart**


**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-mart**

2021-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **10,1** mlrd. so'mga ko'paydi.


### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**

**2021- y.  
yanvar-  
mart**



**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar**

**2022- y.  
yanvar-  
mart**



**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

2022- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,3** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,3** % ni tashkil etgan.

# ***Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi***



***Dastlabki ma'lumotlar***

***2022- yil yanvar-mart***

<b>Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	
		<b>2022- y.</b>	<b>2021- y.</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2225,1</b>	<b>118,3</b>	<b>106,9</b>
Nukus sh.	924,4	111,4	112,4
tumanlar:			
Amudaryo	113,4	109,1	108,2
Beruniy	119,9	109,0	107,3
Bo'zatov	9,5	110,6	116,9
Qorao'zak	33,2	112,8	104,2
Kegeyli	34,9	114,6	108,8
Qo'ng'iroq	367,8	180,2	88,9
Qonliko'l	28,8	110,8	105,7
Mo'ynoq	19,5	116,1	106,4
Nukus t.	34,0	111,1	107,3
Taxiatosh	42,4	108,6	101,3
Taxtako'pir	25,3	113,0	105,6
To'rtko'l	188,4	109,1	108,1
Xo'jayli	90,1	109,2	105,5
Chimboy	62,9	113,3	107,5
Shumanay	28,2	110,1	106,7
Ellikqal'a	102,4	109,2	107,6


**Dastlabki ma'lumotlar**

**2022- yil yanvar-mart**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-mart oylarida)**



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Bo'zatov tumanida – 0,4 % (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,5 %) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-mart

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

1139,8  
ming so'm



### Hajmning o'sishi

213,0  
ming so'mga

116,7 %

### O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1139,8** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,7 %** ni tashkil etdi.

### Taqqoslash uchun:

2021- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **926,8** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,5 %** da qayd etilgan.